

O'QUVCHILARDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Dilnoza Narzullayeva Axror qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

dilnozanarzillayeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish masalasi yoritiladi. Unda og'zaki nutqning ta'lim jarayonidagi o'rni, uni rivojlantirish usullari hamda o'qituvchining bu boradagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, samarali muloqotga o'rgatish, fikrni ravon ifodalash va ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan metodlar ko'rib chiqiladi. Maqola umumta'lim maktablarida ona tili darslarini samarali tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, og'zaki nutq, produktiv nutq, reproduktiv nutq, tayyorlanmagan nutq, tayyorlangan nutq, nutqiy vaziyat, tasvir, muhokama.

Kompetensiya – u yoki bu soha bo'yicha bilimonlikdir. Kompetensiya (lot. “Compete” – erishyapman, munosibman, loyiqman) – fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir¹.

Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi 4 komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi:

1. tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish);
2. gapirish (monologik, dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari

¹ Temirova K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. “Pedagogik mahurat// ilmiy-nazariy va metodik jurnali, N 6/2022
<https://scientific-jl.com/>

va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish);

3. o'qish: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o'qish;

4. yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni bilish)².

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Zero, fikrni aniq, mantiqiy va ravon ifoda etish, erkin muloqotga kirishish qobiliyati nafaqat dars jarayonida, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Og'zaki nutqni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy namunasining ham o'rni beqiyos. O'qituvchining o'zi ham to'g'ri, ravon, adabiy til me'yorlariga mos nutq bilan chiqish qilsa, bu o'quvchilarda o'rnak bo'lish bilan birga, ularning estetik didini ham shakllantiradi.

Shuningdek, mavzuga oid kichik hikoya tuzish, sahnalashtirish, voqeani qayta so'zlab berish, o'z fikrini dalillar bilan asoslab ifodalash kabi mashqlar o'quvchilarning nutqiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda, ularni fikrlashga va erkin so'zlashga undashi zarur.

“Ona tili mashg'ulotlari nutq san'atini egallash va undan samarali foydalanish bilim ko'nikma va malakalarini tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat ham shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishdan tortib, kimga, nimaga, qachon, qayerda, qanday so'zlashgacha bo'lgan muomala - muloqot sirlarini o'rgatadi. Shuningdek, sharqona odob - andisha, go'zal qiroat san'ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi”³.

Ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarning rivojlanish

² Qorayev S.B., Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. “Academic Research in Educational Sciences”, Volume 3/ISSUE 1/2022

³ To'xliyev B., Shamsiyeva M., T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston

Milliy kutubxonasi, 2010. –70b.(184)

<https://scientific-jl.com/>

ko'rsatkichlarini ona tili mashg'ulotlarida aniqlash mumkin. Shu jarayon ta'sirida nutq, nutqiy muomala madaniyati shakllanib boradi. Professor N.Mahmudov: "Nutqning ta'sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay, "yuqumli" tarzda yetkazish imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo'lmish so'z boyligiga bog'liq. Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir biridan farq qiladigan unsurlari (so'z ma'nolari, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k.)dan qay darajada foydalanganlik bilan belgilanadi. Buning uchun esa nutq tuzuvchida til vositalarining boy va faol zahirasi mavjud bo'lishi kerak"⁴- deb tafakkur qilish ayni haqiqatdir.

Og'zaki nutq murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning yordamida og'zaki verbal muloqat amalga oshiriladi. Og'zaki nutq va tinglab tushunish ko'nikmasining qiyosiy tahlili ushbu ikki faoliyatning nafaqat chambarchas bog'liqligini, balki ularning o'qish va yozish ko'nikmalari bilan o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi. Yozuv yangrayotgan nutqqa aylanib, til tovushlarining grafikada aks ettirilishi, uning saqlanishi va keyinchalik ushbu axborotdan foydalanishini ko'zda tutadi.

Og'zaki nutqni o'stirish ona tili ta'limida alohida yondashuvni talab qiladi. O'qib tushunish va tinglab tushunish jarayonida tayyor til materiali beriladi. Og'zaki nutq yaratish uchun esa so'zlovchi nafaqat tilning sintaktik-morfologik tizimini balki so'zlar birikuvchanligi tizimini ham bilishi zarur.

Og'zaki nutqning quyidagi turlari farqlanadi:

- 1) **tashabbusli, faol nutq** – so'zlovchining ichki motivlari, maqsadidan kelib chiqadigan nutq, ya'ni uning o'z tashabbusi bilan, mustaqil tarzda yaratgan nutqi;
- 2) **reaktiv, javob nutqi** – suhbatdoshning nutqiga yoki savoliga javob bo'ladigan nutq;
- 3) **reproduktiv, taxminiy nutq** – yodda qolgan matnni aytib berishdan iborat nutq.

Muloqot jarayonida fikrni ifodalash tayyorgarliksiz yoki tayyorgarlik ko'rilgan holda yuz berishi mumkin, shu bois ta'limda ularning har ikkalasi

⁴ Махмудов Н. Нутқ бойлиги// Умумфилологик тадқиқотлар: муаммолар ва ечимлар:Тезис шаклидаги мақола. – Жиззах: 2011. – 22 б1626.

<https://scientific-jl.com/>

o'rganiladi.

Tayyorlanmagan nutq – yuzaga kelgan vaziyatga bevosita reaksiya sifatidagi nutq.

Tayyorlangan nutq – matnga yoki o'qituvchi tomonidan berilgan, oldindan tayyorlangan mazmun va til materialiga tayanadigan nutq⁵.

Tayyorlanmagan nutq o'quvchining mustaqil fikrlashi, vaziyatga mos ravishda tezda javob bera olish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu turdagi mashqlar, masalan, suhbat, munozara yoki savol-javoblar shaklida bo'lib, o'quvchini tabiiy ravishda gapirishga undaydi.

Tayyorlangan nutq esa o'quvchining mazmunni tartibli, mantiqan to'g'ri va grammatik jihatdan to'g'ri ifoda etish ko'nikmasini oshiradi. Bu orqali u to'g'ri talaffuz, tuzilma va boy so'z boyligini o'zlashtiradi.

Misollar:

- Tayyorlanmagan nutq: O'quvchidan "Bugun ertalab maktabga kelayotganingizda yo'lda nima ko'rdingiz?" degan savolga javob berishini so'rash.
- Tayyorlangan nutq: O'quvchiga "Mening sevimli hayvonim" mavzusida 5–6 gapdan iborat qisqa matn yozib, uni yod olib aytib berish topshirig'i beriladi.

Suhbatga asoslangan, ya'ni tayyorlanmagan nutqni rivojlantiruvchi mashqlar o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda tez, aniq va to'g'ri gapirish malakasini oshiradi.

1. Savol-javob zanjiri:

O'quvchilar bir-birlariga ketma-ket savollar beradilar, masalan:

- "Kecha nima qilding?"
- "Kitob o'qidim. Senchi?"

Bu mashq spontan (tayyorlanmagan) fikrlashni o'rgatadi.

2. Rolli o'ynash (rollivoy o'yinlar):

⁵ Gulshan Asilova. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari. T.: "PUBLISHING HIGHT FUTURE " OK, 2024. 72- bet.

Ikkita o'quvchiga muayyan vaziyat topshiriladi, masalan:

- Do'konchi va xaridor
- Doktor va bemor

Ular o'z rollariga kirib, vaziyatga mos suhbat quradilar.

3. Rasmga qarab hikoya tuzish:

Biror rasm ko'rsatiladi va o'quvchidan:

- "Bu rasmda nima bo'layapti?" deb so'raladi.

Bu orqali u holatga qarab mustaqil gapirishga harakat qiladi.

Og'zaki nutqning ichki va tashqi shakllari mavjud.

1. Ichki nutq – nutqiy faoliyatning tashqi vositalar ishtirokisiz, so'zlovchining "o'zi uchun", "ichida" vujudga keladigan shakli. U fikrlash, tinglash, o'qish jarayonida inson ongida yaraladi.

2. Tashqi nutq – tovushlar yoki grafemalar, tana harakatlari, ohang vositasida shakllangan, suhbatdoshga yoki auditoriyaga qaratilgan nutq.

Tashqi nutqning asosiy belgilari uning eshutilishi, muloqot vaziyatining to'g'ri tanlanganligi va emotsional bo'yoqdorligidir.

Nutqiy vaziyat og'zaki nutq jarayonining muhim jihatlari, ya'ni kim so'zlayotgani, kimga so'zlayotgani, nima maqsadda va nimani so'zlayotganidir. Bu nutqni muloqot vazifasiga muvofiq to'g'ri tuzish uchun zarur sharoitdir. Vaziyat nutqqa motivatsiya beradi va uni oshiradi, so'zlovchilarni muloqotga undaydi.

Og'zaki nutqni o'stirish jarayonida tabiiy nutqiy vaziyatlarni yaratish shartlaridan biri o'quvchilarni samarali nutqga tayyorlash, shu bois o'qituvchi o'quvchiga o'z nutqidagi xatolarni va ularni bartaraf qilishning eng samarali yo'llarini topishga yordam berishi lozim. O'quvchi o'zining nutqda xatolarga yo'l qo'yayotganini mustaqil tarzda tushunsa, ularni to'g'rilab ketishga o'rganadi.

Ona tili mashg'ulotlarida nutqiy vaziyat yaratishda o'quvchilarning uydagi, maktabdagi, o'qishdan tashqaridagi real hayotidan, shuningdek, hayotiy tajribasi va o'zlashtirilayotgan mavzularga mos har qanday real voqealardan foydalanish mumkin. Vaziyatlar, birinchidan, suhbatdoshning nutqi umumiy mazmunini aks

ettiradi yoki ma'lumot beradi, ikkinchidan, muloqot yuz berayotgan sharoitlar va uning xususiyatlarini belgilab beradi.

Real muloqot vaziyatlarini modellashtirish quyidagi mashqlar yordamida amalga oshiriladi:

- berilgan vaziyatda (holatda) muloqot vazifasiga qarab mavzu bo'yicha fikr bildirish;
- ketma-ket yuz bergan hodisalar tasvirlangan rasmlar va ularga oid kalit so'zlar yordamida nutq yaratish;
- oddiy va murakkab vaziyatlarning (holatlarning) boshlanishi tasvirlangan rasmlar yordamida hikoyani davom ettirish;
- filmlar va audioyozuvlar asosida vaziyatlarni modellashtirish;
- yetkazilgan axborotga asoslanib nutq yaratish;
- vaziyat (masalan, dialogning boshlanishi yoki tugallanishi) haqidagi mavjud ma'lumotlardan foydalanib nutq yaratish,
- kalit so'zlar yordamida nutq yaratish,
- matnda boshlanishi berilgan mavzuni davom ettirish;
- monologik nutqni jonlantirish va kengaytirish,
- berilgan mavzu doirasida yangi sharoitga mos vaziyatlarni modellashtirish;
- mavzu bo'yicha odatdagi muloqot vaziyatlarida nutq yaratish:
- turli mavzularda kichik dialoglar tuzish;
- polilog (bahs-munozara, press-konferensiya va b.) sharoitida muloqot qilish uchun turli dialoglar va kichik dialoglar tuzish.

Nutqiy vaziyatlar muloqot qiluvchilar orasidagi munosabatlarga qarab turlicha bo'ladi. Har qanday nutqiy vaziyat o'zaro munosabatlardan tarkib topib, 4 ta asosiy omilga bog'liq bo'ladi: so'zlashuvchining ijtimoiy maqomi, uning muloqot subyeksi sifatidagi roli, uning bajaradigan faoliyati, uning ma'naviy qiyofasi yoki qarashlari. Shunga ko'ra, nutqiy vaziyatlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Ijtimoiy vaziyat. Bunda so'zlashuvchilar muayyan ijtimoiy tabaqa vakillari, kasb egalari, siyosiy va jamoat tashkilotlari a'zolari, muayyan avlod vakillari

sifatida nutq yaratadilar.

2. Rolli vaziyat. Bu tarzdagi munosabatlarni aks ettirishda so'zlashuvchilar muayyan rollarni bajarib nutq yaratadilar.

3. Faoliyatdagi vaziyat. Bunday munosabatlar muloqot ishtirokchilari shug'ullanadigan faoliyat doirasida quriladi va nutqda aks ettiriladi.

4. Ma'naviy munosabatlardagi vaziyat. Bu muloqotni yuzaga keltiradigan eng samarali usul bo'lib, ko'plab turli vaziyatlarga asos bo'ladi (Passov, Stoyanovskiy, 1989).

Demak, nutqiy vaziyat muloqotni amalga oshirish shakli, muloqot birligi hisoblanadi. Ona tili darslarida nutqiy vaziyatlarni yaratish ta'limni muloqot jarayonining modeli sifatida tashkillashtirishni taqozo etadi⁶.

A.Nisanbayevaning ta'kidlashicha, "O'quvchilarning mustaqilligini oshirish uchun ularga dastlab mashq va topshiriqni og'zaki bajartirish va o'z harakatlarini izohlatish maqsadga muvofiqdir. Ana shu izohlashlar mobaynida bolalarda qoidasimon xulosalar shakllanadi"⁷.

Binobarin, o'quvchilarga topshiriqlarni og'zaki bajartirib, ularning harakatlarini izohlashga imkon yaratish orqali, bolalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish va xulosalar chiqarish ko'nikmalari samarali shakllanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va bilimlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Demak, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish ona tili darslarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarda nutqiy faoliyatga qiziqish uyg'otishi, ularni erkin fikr bildirishga, muloqotga kirishishga undashi zarur. Og'zaki nutq mashqlari — suhbat, bahs, rol o'yinlar, rasm asosida hikoya tuzish kabi usullar orqali o'quvchilarning so'z boyligi, mantiqiy fikrlashi va nutq madaniyati rivojlanadi. Dars jarayonida tabiiy nutqiy vaziyatlarni yaratish, tayyorlangan va tayyorlanmagan nutqdan foydalanish,

⁶ Gulshan Asilova. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari. T.: " PUBLISHING HIGHT FUTURE " OK, 2024. 80- bet.

⁷ Нисанбаева А.К. Ўзбек тили дарсларида матн воситасида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг методик асослари (таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. номз. ...дис. – Т.: ТДПУ, 2008. –92б

<https://scientific-jl.com/>

o'quvchining ichki va tashqi nutqini uyg'un shakllantirish og'zaki nutq malakasining takomillashuviga xizmat qiladi. Shunday qilib, ona tili ta'limida og'zaki nutqni shakllantirish o'quvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Temirova K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. "Pedagogik mahurat// ilmiy-nazariy va metodik jurnali, N 6/2022
2. Qorayev S.B., Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. "Academic Research in Educational Sciences", Volume 3/ISSUE 1/2022
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. –70b.(184)
4. Маҳмудов Н. Нутқ бойлиги// Умумфилологик тадқиқотлар: муаммолар ва ечимлар:Тезис шаклидаги мақола. – Жиззах: 2011. – 22 b162б.
5. Нисанбаева А.Қ. Ўзбек тили дарсларида матн воситасида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг методик асослари (таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. номз. ...дис. – Т.: ТДПУ, 2008. –92б
6. Gulshan Asilova. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari. T.: "PUBLISHING HIGHT FUTURE " OK nashriyoti, 2024. - 115 bet